



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi
406-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi
vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat
ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga
o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisining Nogironligi bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga qamrab olishni yanada takomillashtirish bo‘yicha 2025-yil 7-maydagi (03-PA 1-6930/5-xdfu-son) berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda nogironligi bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim bilan qamrab olish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 406-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vaziri

Toshkent sh.,
2025-yil 11 iyul
238 -son.



X. Umarova

kelishilgan:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

2025-yil “11” - iyul



D. Kuchkarov

**Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**

2025-yil “11” - iyul



B. Zaxidov

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi
406-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tizimidagi umumta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat
ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga
kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

Buyruq bilan tasdiqlangan 1-ilovaning 26-bandi birinchi xatboshisi quyidagi
tahrirda bayon etilsin:

“26. Inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktabga har bir ochilgan inklyuziv
sinfdagi:

a) nutqida nuqsoni bo'lgan, kar-soqov, aqliy rivojlanishida muammolari
bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun 1,0 birlik maxsus pedagog (defektologiya,
logopediya, surdopedagogika, tiflopedagogika yoki oligofrenopedagogika
yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan pedagog);

b) ko'rish, tutqanoq holati va tayanch-harakatida (mustaqil yura olmaydigan)
nuqsoni bor o'quvchilar bilan ishlash uchun 1,0 birlik yordamchi xodim (assistent)
(alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan ushbu turdagi bolalar bilan ishlash uchun maxsus
ta'lim yoki sertifikatga ega bo'lgan, psixologiya, pedagogika yoki maxsus ta'lim
sohasida o'rta-maxsus yoki oliy ma'lumotli xodim) ajratiladi.

Bunda, shtatga bo'lgan ehtiyojni Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya
belgilaydi.

Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan inklyuziv ta'lim sinflariga
mazkur bandning “a” va “b” kichik bandida keltirilgan tibbiy tashxisdagi
o'quvchilarni bir sinfdagi o'qitilishiga yo'l qo'yilmaydi.”